Birinchidan, «iqtisodiy samaradorlik» ko‘pincha moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan cheklanadi: jami xarajatlar, tashish hajmi, daromad va rentabellik darajasi. Ammo bu ko‘rsatkichlar ko‘p hollarda faoliyatning funksional samaradorligini to‘liq ifoda etmaydi. Ya‘ni, ma‘lum yo‘nalishda tannarx past bo‘lishi, lekin tashish muddati uzoq, logistika uzilishlari ko‘p, xizmat turlari cheklangan bo‘lishi mumkin. Bunday holatlarda iqtisodiy samaradorlik haqida umumlashma xulosa chiqarish imkoniyatini cheklaydi.


Ikkinchidan, «raqobatbardoshlik» ham faqat xizmat narxi bilan emas, balki xizmatlar diversifikatsiyasi, texnologik daraja, logistika sifat standartlari va mijozlar bilan ishlash qobiliyati bilan belgilanadi. Biroq ushbu ko‘rsatkichlar O‘zbekiston sharoitida rasmiy statistikada aks etmasligi, ularning tahlilida subyektiv baholar ustvorligi, ilmiy ishonchni pasaytiradi.

Uchinchidan, yuk tashish faoliyatining samaradorligi va raqobatbardoshligi faqat tarmoq ichida emas, balki logistika tizimi, infratuzilma sifat darajasi, chegaradagi operatsiyalar, IT integratsiyasi kabi ko‘plab omillar bilan chambarchas bog‘langan. Bu ko‘p qirralilik mezonlarni alohida va kompleks asosda shakllantirishni talab etadi. Ammo bugungi kunda mavjud yondashuvlar va baholash metodikalari bu talabni to‘liq qondirmaydi.

Shu sababli, tadqiqot ishida birinchi ilmiy muammo sifatida — temir yo‘l transportida yuk tashish faoliyati samaradorligi va raqobatbardoshligini aniq baholay oladigan, fanlararo va tizimlashtirgan indikatorlar tizimi mavjud emasligi nazarda tutiladi. Bu muammoni echish uchun mavjud ko‘rsatkichlardan tashqari, logistika sifat mezonlari, texnologik jihatlar, institutsional to‘siqlar va infratuzilmaviy omillar asosida integral va kompleks indikatorlar tizimini ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Ilmiy nuqtai nazardan, bunday indikatorlar tizimini shakllantirish nafaqat mavjud holatni baholash, balki transport xizmatlarining bozordagi ulushini aniqlash, strategik ustuvor yo‘nalishlarni belgilash va investitsion qarorlarni asoslashda ham muhim metodologik vosita vazifasini bajaradi.

Yuk tashish faoliyatida samaradorlikni aniqlash va baholash uchun qo‘llaniladigan mezonlar, sohaning ko‘p qirrali xususiyatini hisobga olgan holda, fanlararo yondashuv talab qiladi. Shu nuqtai nazardan samaradorlikni baholash mezonlarini konseptual klassifikatsiya asosida shakllantirish, tahlil uchun mustahkam nazariy va metodologik poydevor yaratadi; quyida yuk tashish faoliyati samaradorligini baholash mezonlarining konseptual klassifikatsiyasi taklif etildi (1-rasm).



1-rasm. Yuk tashish faoliyati samaradorligini baholash mezonlarining konseptual klassifikatsiyasi¹

1 O‘rganilgan manbalar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.



Birinchi guruh mezonlar – iqtisodiy mezonlar bo'lib, ular yuk tashish faoliyatida foydalaniladigan iqtisodiy resurslarning sarflanish samaradorligini aniqlashda qo'l keladi. Bu yerda asosiy ko'rsatkichlardan biri tannarx (so'm/tonna-km) bo'lib, har bir tonna yukni belgilangan masofaga tashish uchun ketadigan xarajat miqdorini anglatadi. Ikkinchi mezon – daromad/xizmat hajmi ko'rsatkichi, operatorning iqtisodiy faoliyati natijasini, ya'ni jami daromadning tashish hajmiga nisbatini tavsiflaydi. Shuningdek, rentabellik mezoni orqali sof foydaning umumiy xarajatga nisbati hisoblanib, xizmat faoliyatining iqtisodiy turg'unligi va samaradorlik darajasi baholanadi. Bu mezonlar moliyaviy samaradorlikni baholashda muhim bo'lsa-da, xizmat ko'rsatish tezkorligi yoki texnologik darajani qamrab olmaydi.

Ikkinchi toifa – vaqt va operatsiya mezonlari samaradorlikni tashkil etish va operatsiya tizimining natijadorligini tavsiflaydi. Bu guruhdagi asosiy ko'rsatkichlardan biri – yetkazib berish tezligi bo'lib, u yuk manzilga qay darajada qisqa muddatda yetkazilayotganini ifodalaydi. Bunda operatsiya uzluksizligi va tashish marshrutlarining ratsionalligi katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, oraliq punktlardagi kechikishlar soni va davomiyligi, logistika zanjirining samarasiz bo'g'inlarini aniqlashga yordam beradi. «Just-in-time» xizmati mezoni esa belgilangan muddatda yukni aniq manzilga yetkazib berish imkoniyatini, ya'ni logistika intizomining darajasini aks ettiradi.

Uchinchi toifani logistika va infratuzilma mezonlari tashkil etadi. Bunda, birinchi navbatda, uzluksizlik darajasi baholanadi – yuk tashish jarayonida logistika zanjirining qay darajada uzluksiz ekani, transfer punktlardagi kechikishlar va muvofiqlashtirish muammolari tahlil qilinadi. Shuningdek, konteyner hablar bilan bog'lanish darajasi temir yo'l infratuzilmasining global logistika tizimiga integratsiyalanganligini ko'rsatadi. Yangi zamonaviy mezonlardan biri – modernizatsiya darajasi hisoblanib, u avtomatlashtirilgan platformalar, raqamlashtirilgan boshqaruv tizimlari, elektron yuk kuzatuv sistemalari va boshqa texnologik echimlarning joriy qilinganlik darajasini qamrab oladi.

Samaradorlikni aniqlash mezonlarining ushbu konseptual klassifikatsiyasi faqat iqtisodiy natijalarni emas, balki funksional sifat, logistika tizimi samaradorligi va texnologik bazaning ahvolini ham inobatga olgan holda tahlil qilish imkonini beradi. Shu tariqa, transport xizmatlarini baholashda mukammal metodologik yondashuvlar shakllantiriladi.

Samaradorlikni kompleks baholash uchun yuqoridagi mezonlarni ilmiy-amaliy jihatdan tizimlashtirish, ular o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bog'liqlikni aniqlash, hamda ularni transport xizmatlarini modellashtirishda hisobga oluvchi mexanizmlarni ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Mazkur mezonlar kelgusida raqobatbardoshlik indikatorlari bilan integratsiya qilingan holda tahlil etiladi va transport tizimidagi yaxlit iqtisodiy samaradorlik modelini ishlab chiqishga asos bo'ladi.

Temir yo'l transportida yuk tashish faoliyatining raqobatbardoshligini aniqlashda ko'p omilli mezonlar tizimi asosida baholash alohida nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Samaradorlikning yalpi ko'rsatkichlar bilan emas, balki tarmoqning ichki va tashqi imkoniyatlarini chuqur tahlil qiluvchi indikatorlar orqali baholanishi bu sohadagi real holatni aniq ifodalash imkonini beradi. Ayniqsa, iqtisodiy ko'rsatkichlar, xizmat turlari va diversifikatsiya, texnik infratuzilma holati, logistika jarayoni, mijozlar bilan munosabatlar va xalqaro standartlarga integratsiya kabi asosiy yo'nalishlardagi indikatorlarning tizimli tahlili raqobat muhitini to'g'ri baholash uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Temir yo'l transportida raqobatbardoshlikni ilmiy baholashda xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan logistika va transport sifat indikatorlarining tahlili muhim manba hisoblanadi. Biroq ularni mexanik tarzda qabul qilish emas, balki sohaviy xususiyatlar va mamlakat infratuzilmasining real holati asosida tanqidiy tahlil qilish zarur. Bu borada to'rtta asosiy xalqaro indeks tahlilga tortiladi: World Bank – Logistics Performance Index (LPI), ITF – Transit Time Index, ESCAP – Cost per Ton-Kilometer va UNCTAD – Port/Terminal Efficiency Index.

Birinchidan, LPI indeksi jahonda eng keng tarqalgan transport-logistika sifat ko'rsatkichidir. U logistika tizimini 6 ta asosiy mezon bo'yicha baholaydi, jumladan infratuzilma, yetkazib berish sifatlari, bojxonadagi samaradorlik. Temir yo'l transportiga bevosita tegishli bo'lgan qismlar, ayniqsa «Infrastructure» va «Timeliness» mezonlari foydali. Biroq tanqidiy jihatdan, LPI indeksida temir yo'l infratuzilmasining spetsifik jihatlari, masalan, chegara punktlaridagi ortiqcha rasmiylashtirishlar, IT integratsiya darajasi, vagonlar aylanmasi kabi elementlar inobatga olinmaydi. Shu sababli, bu indeks to'liq temir yo'lni aks ettirmaydi, balki umumiy logistika muhitini ko'rsatadi.

Ikkinchi tahlil qilingan indeks – ITF Transit Time Index. Bu indeks yetkazib berish muddati, kechikishlar va tranzitdagi uzilishlarni hisobga oladi. Temir yo'l transportida bu ko'rsatkich alohida ahamiyatga ega, chunki juda ko'p hollarda yuk manzilga kech yetadi, chegaralar orqali o'tishda 1–2 kunlik to'xtash kuzatiladi. Indeksning afzalligi shundaki, u «door-to-door» tarzda transportirovka muddatini to'liq qamrab oladi. Lekin tanqidiy nuqtai nazardan u faqat vaqt mezonini o'lchaydi, iqtisodiy yoki sifat jihatlarni qamrab olmaydi. Bunda logistika tizimining integratsiya darajasi, xizmat turlarining xilma-xilligi, raqamlashtirishning ta'siri hisobga olinmaydi.

Uchinchi indeks – ESCAP tomonidan ishlab chiqilgan «Cost per Ton-Kilometer» ko'rsatkichi – temir yo'l transporti uchun eng mos indikatorlardan biri hisoblanadi. U sarf-xarajat va masofa munosabati orqali xizmat

samaradorligini baholaydi. Ayniqsa tarif siyosati va xarajatlarni optimallashtirish strategiyalarini baholashda ushbu indeks yuqori ilmiy va amaliy qiymatga ega. Biroq ESCAP metodologiyasida xarajatlarning tarkibiy tahlili (masalan, ortish-tushirish, temir yo'l yig'irlari, stansiya logistika xarajatlari) ifodalanmagan. O'zbekiston sharoitida esa xarajatlar ko'p hollarda subsidiyalangan yoki markazlashgan holda hisoblanadi. Shu sababli, ushbu indeksni to'g'ridan-to'g'ri solishtirish imkonsiz, balki uning tegishli moslashtirilgan modeli talab etiladi.

Yuk tashish faoliyatida temir yo'l transportining iqtisodiy samaradorligi bilan bozordagi raqobatbardoshlik darajasi o'rtasida mustahkam iqtisodiy bog'liqlik mavjud. Bu bog'liqlikni oddiy to'g'ridan-to'g'ri ta'sir deb baholash emas, balki sabab-oqibat tizimi, multifaktor aloqalar va ekspert baholari asosida chuqur o'rganish zarur. Chunki raqobatbardoshlik faqat arzon tarif orqali emas, balki xizmat sifatini, logistik integratsiyani, yetkazib berishdagi aniqlikni va texnologiyalar darajasini o'z ichiga olgan murakkab ko'p o'zgaruvchili tizimdir.

Birinchiidan, iqtisodiy samaradorlikni aniqlovchi omillar – tannarx, rentabellik, operatsiya samaradorligi va vaqt tejami – raqobatbardoshlikni shakllantiruvchi asosiy ichki muhit komponentlari hisoblanadi. Agar transport xizmati yuqori operatsiya samarasiga ega bo'lsa, foydalanuvchi xarajatlarini kamaytiradi va bu orqali tarif raqobatini ta'minlaydi. Masalan, yukni 1 tonna-km uchun kam xarajat bilan yetkazish (ESCAP metodologiyasi bo'yicha), xizmat provayderiga narxlar orqali bozordagi pozitsiyani saqlab qolish yoki kuchaytirish imkonini beradi.

Ikkinchiidan, xizmat sifatini oshirish – iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlik o'rtasidagi o'tish nuqtasidir. «Xizmat sifatini oshirish → mijoz qoniqishi → takroriy shartnomalar → bozor ulushi oshishi» zanjiri orqali raqobat kuchayadi. Bu zanjirli ta'sirni modellashtirishda ekspert baholari, Delphi-metodika va Likert shkalasi asosida mijoz fikrlari bilan ko'p o'lchovli matritsalar shakllantiriladi. Ushbu usullar xizmat sifati va bozor ulushi o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentini aniqlashda qo'l keladi.

Uchinchiidan, samaradorlikning moddiy ifodasi – xarajatlarning kamayishi orqali tarif moslashuvchanligini imkonini beradi. Bu esa temir yo'l transportida raqobatning narx komponentasini shakllantiradi. Bozor sharoitida moslashuvchan tarif strategiyasi yuqori sifatli, lekin narxi raqobatli xizmat ko'rsatish imkonini yaratadi. Narx va sifat muvozanatidagi ustunlik esa iste'molchilar uchun asosiy tanlov omillaridan biri hisoblanadi.

To'rtinchiidan, yuqori samaradorlik natijasida shakllanadigan ichki resurs tejamkorligi (vaqt, yoqilg'i, operatsiya xarajatlari) korxonaga yangi xizmat turlarini joriy qilish va infratuzilmani modernizatsiya qilish imkonini yaratadi. Bu esa xizmat turlarining diversifikatsiyasiga olib keladi, bu orqali raqobatning faqat narx emas, balki qo'shimcha qiymat orqali yuritilishi ta'minlanadi. Masalan, «konteyner + eshikdan eshikka» xizmatlar samaradorlik bilan bog'liq texnologik imkoniyatlar evaziga joriy etiladi.

Beshinchiidan, yuqori samaradorlik darajasida texnik va texnologik sifatlar ham oshadi: avtomatlashtirilgan stansiyalar, raqamlashtirilgan monitoring, IT logistika tizimlari. Bu xizmatning o'z vaqtida va kutilmagan uzilishlarsiz amalga oshishini kafolatlaydi. «On-Time Delivery» va «Delivery Reliability» indekslarining yuqori bo'lishi raqobat ustunligini kafolatlaydi.

Shu bois, «Samaradorlik → Raqobatbardoshlik» munosabati statistik bog'liqlik emas, balki sabab-oqibatli, zanjirli, faoliyatga asoslangan transformatsiya jarayonidir. Uning modeli ko'p omilli korrelyatsiya, kauzal (causal) munosabatlar, logik zanjirli tahlil asosida tushuntirilishi kerak. Har bir samaradorlik ko'rsatkichi – tannarx, tezkorlik, avtomatlashtirish – raqobatning tegishli ko'rsatkichi – tarif raqobati, sifat indeksi, bozor ulushi bilan chambarchas bog'langan.

Raqobatbardoshlik va samaradorlikni baholovchi indikatorlar tizimini O'zbekiston sharoitida joriy etishning ilmiy-amaliy ahamiyati yuqori bo'lishi bilan birga, uning samarali tatbiq etilishi bir qator shart-sharoit va mahalliy omillarga bog'liqdir. Indikatorlar asosida baholash faqat nazariy yechim emas, balki institutsional, ma'lumotnomaviy va normativ-huquqiy tizimlar bilan chambarchas bog'liq murakkab jarayondir. Bu jarayonni amalga oshirishda asosiy e'tibor davlat siyosatida belgilangan mezonlar, statistik ma'lumotlar shaffofligi va xalqaro metodikalarni lokal sharoitga moslashtirish masalalariga qaratilishi lozim.

Birinchiidan, transport sohasiga oid iqtisodiy ma'lumotlar ochiqligi va to'liqligi indikatorlar tizimining metodologik to'g'ri ishlashini belgilaydi. Amalda yuk tashish hajmi, operatsiya turlari, xarajat tuzilmasi, xizmat muddatlari, infratuzilmaning texnik holati kabi ko'rsatkichlar yoki taqsimlanmagan holda e'lon qilinadi, yoki umuman ochiq ma'lumot bazalarida mavjud emas. Bu holat indikatorlar formulalariga kiritiladigan o'zgaruvchilarni aniqlashda statistik jihatdan etarli ishonch darajasini ta'minlamaydi. Bunday sharoitda samaradorlik yoki raqobatbardoshlikni hisoblashda ekspert baholariga tayangan holda baholash mexanizmlari ishlab chiqilishiga to'g'ri keladi.

Ikkinchiidan, davlat dasturlari va sektor strategiyalarida indikatorlar tizimi aks etgan-etmagani tahlil qilinishi lozim. Hozirgi strategik hujjatlarda transport sohasi rivoji ko'zda tutilgan bo'lsa-da, mezonlarni aniqlash, monitoring qilish va mezonlar asosida baholash usullari tizimli ravishda belgilanmagan. Davlat dasturlarida transport xizmatlarining narx siyosati, sifat ko'rsatkichlari, konteynerlashtirish darajasi, raqamlashtirish va logistika integratsiyasi kabi mezonlar ifodalanmagan holda qolmoqda. Bu esa indikatorlar asosida qabul qilinishi lozim bo'lgan boshqaruv qarorlarini amaliy mexanizmga aylantirishni qiyinlashtiradi.



Uchinchidan, xalqaro metodikalarni O'zbekiston infratuzilmasi va institutsional muhitiga moslashtirish jarayonida bir qator chuqur ilmiy va amaliy ziddiyatlar mavjud. Xalqaro tashkilotlar tomonidan taklif etilgan indekslar, jumladan Logistics Performance Index, Cost per Ton-Kilometer yoki Transit Time Index kabi baholash vositalari yuqori darajada raqamlashgan va standartlashgan statistikaga asoslangan. Milliy tizimda esa ko'p hollarda yuk harakatini to'liq avtomatlashtirilgan tizim orqali kuzatish, elektron hujjat almashivi, xizmat turlari bo'yicha daromad va xarajatni operatsional kesimda hisobga olish imkoni mavjud emas. Shu sababli, xalqaro formulalarni to'g'ridan-to'g'ri qo'llash emas, balki tegishli adaptatsiya mexanizmini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Shuningdek, raqobatbardoshlikni o'lchovchi indikatorlardan foydalanishda kadrlar malakasi, tahliliy salohiyat va tizimli o'quv-ilmiy metodikalar mavjudligi ham muhim o'rin tutadi. Mamlakatda transport iqtisodiyoti sohasida murakkab korrelyatsiya va regression modellaridan foydalanish, ekspert baholarini matematiklashtirish, holatni indikatorlashtirish bo'yicha amaliy platformalar etarlicha shakllanmagan. Bu esa indikatorlar tizimini amaliyotga joriy qilishda tizimli yondashuvlarni talab etadi.

Yuqoridagi yondashuvlar asosida temir yo'l transportining raqobatbardoshlik darajasini baholovchi indikatorlarning me'yoriy qiymatlari va O'zbekistondagi qiymatlar keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Temir yo'l transportining raqobatbardoshlik darajasini baholovchi indikatorlarning me'yoriy qiymatlari²

№	Indikator nomi	Ta'rif	O'lchov birligi	Me'yoriy qiymat	O'zbekistondagi qiymat	Me'yorga nisbatan
Ta'rif va narx siyosati indikatorlari						
1.	Chegirma siyosati mavjudligi	% tarif o'zgaruvchanlik	%	20–40%	20%	1.0x past
2.	Subsidiya ulushi	Tarifdagi davlat qo'llab-quvvatlash ulushi	%	0–15%	12%	me'yorda
3.	Chegirma siyosati mavjudligi	Mijozlar uchun chegirmalar tizimi	1/0	1 (bor)	0 (yo'q)	Mavjud emas
Xizmat turlari va sifat diversifikatsiyasi						
4.	Konteyner tashish ulushi	Konteynerli tashishning umumiy yukdagi ulushi	%	30–50%	18%	1.7x past
5.	Ekspress xizmat mavjudligi	Ekspress tashish xizmatining amaliyotda qo'llanilishi	1/0	1 (bor)	0 (yo'q)	mavjud emas
6.	Maxsus yuklar tashish	Refrizherator/xavfli yuklarga ixtisoslasuv	1/0	1 (bor)	1 (bor)	me'yorda
7.	Eshikdan-eshikgacha xizmati	To'liq logistika yechimi	1/0	1 (bor)	0 (yo'q)	mavjud emas
8.	Ortish-tushirish tezligi	Vagonga yuk ortish/tushirish davomiyligi	coat	1.0–1.5 soat	2.0 soat	1.3x sekin
Texnik va infratuzilmaviy indikatorlar						
9.	Modernizatsiya indeksi	Texnologik jihatdan yangilangan infratuzilma ulushi	%	70–90%	55%	1.3x past
10.	Signalizatsiya tizimi yangilanish darajasi	Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari	%	80–100%	65%	1.2x past
Logistika sifat indikatorlari						
11.	Yuk yetkazib berish muddati	Manzilga yetkazish uchun o'rtacha vaqt	kun	2–4	5.5	1.4x sekin
12.	Yuk monitoringi	Yuk harakatini real-time kuzatish	1/0	1 (bor)	0 (yo'q)	mavjud emas
13.	Yuk yo'qotish darajasi	Yuk shikastlanish yoki yo'qotish holati	‰	<1‰	2‰	2x yuqori

2 O'rganilgan manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

14.	Logistika shaffofligi	Onlayn hisob-kitob va kuzatuv	1/0	1 (bor)	0 (yo'q)	mavjud emas
Mijoz markazlilik va bozor munosabatlari						
15.	Mijoz qoniqish indeksi	So'rovnomalar va feedbacklar orqali baholash	%	85–95%	74%	1.2x past
16.	Mijoz saqlanish darajasi	Takroriy shartnoma ulushi	%	70–80%	61%	1.15x past
17.	Yaxlit logistika yechimlari	Bojxona, saqlash, ortish xizmatlari birlashgan	1/0	1 (bor)	0 (yo'q)	mavjud emas
Xalqaro bozor va standartlarga moslik						
18.	TIR muvofiqlik	TIR standartiga muvofiq faoliyat	1/0	1 (bor)	1 (bor)	me'yorda
19.	ISO sertifikatlash	ISO 9001, ISO 28000 logistika standartlari	1/0	1 (bor)	0 (yo'q)	mavjud emas
20.	Ko'p tomonlama transport hamkorlik darajasi	Xalqaro hamkorlik shartnomalari	(0-1)	1	0.6	1.7x past

Temir yo'l transportida raqobatbardoshlik darajasini baholash indikatorlarining me'yoriy qiymatlari asosida O'zbekistondagi holatni tahlil qilish mazkur sohada mavjud tuzilmaviy va institutsional muammolarning mohiyatini aniqlashga xizmat qiladi. Indikatorlar o'zaro bog'liq 6 ta yo'nalish asosida guruhlangan bo'lib, ular jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan transport xizmatlarini kompleks baholash mezonlarini qamrab oladi. Ushbu yo'nalishlar: tarif va narx siyosati, xizmat turlari diversifikatsiyasi, texnik va infratuzilmaviy holat, logistika sifat ko'rsatkichlari, mijoz markazlilik darajasi hamda xalqaro standart va integratsiya mexanizmlari bilan bog'liq indikatorlarni o'z ichiga oladi.

Tarif va narx siyosati bo'yicha amaliy holat shundan dalolat beradiki, mamlakatda foydalanilayotgan tariflar davlat tomonidan tartibga solinadi va bozor talablari bilan moslashuvchanlik darajasi past. Hisoblashlarga ko'ra, tarif moslashuvchanligi indikator me'yoriy 20–40 foiz o'rniga faqat 20 foizni tashkil etib, bozor mexanizmining cheklanganligini ko'rsatadi. Shuningdek, chegirma siyosati mavjud emasligi tarif shakllanishida fleksibillikni yo'qqa chiqaradi va xizmatlarni individuallashtirish imkonini cheklaydi. Bunday sharoitda transport operatorlari xizmat turlari uchun universal va standart narxlarni taklif etishga majbur bo'lib, bu raqobatdagi faol ishtirokni pasaytiradi.

Xizmat turlari va diversifikatsiyasi sohasida ham jiddiy cheklanishlar mavjud. Ya'ni, konteyner tashish ulushi me'yoriy 30–50 foiz o'rniga faqat 18 foizni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich tarmoqning hozirgi kunda faqat an'anaviy yuk tashish sxemalariga asoslanganligini anglatadi. Ekspress xizmat, eshikdan eshikka logistika yechimlari va turli toifadagi maxsus yuklar uchun integratsiyalashgan xizmatlar amaliyotda deyarli qo'llanilmayapti. Bu esa mijoz ehtiyojlarini to'liq qondirish imkonini cheklab, transport xizmatlarining moslashuvchanligini pasaytiradi.

Texnik va infratuzilmaviy indikatorlar tahlilidan ma'lum bo'ldiki, ortish-tushirish tezligi va signalizatsiya tizimining avtomatlashuv darajasi ham me'yoriy standartlardan orqada qolgan. Masalan, ortish-tushirish jarayonidagi o'rtacha davomiylik me'yoriy 1.0–1.5 soat o'rniga 2.0 soatni tashkil etmoqda. Modernizatsiya darajasi 70–90 foiz o'rniga 55 foiz atrofida saqlanmoqda, bu esa infratuzilmaning texnik jihatdan etarlicha yangilanmaganligini ko'rsatadi. Tarmoqda raqamlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlari sekin kechayotgani transport operatsiyalaridagi uzilishlar va logistika jarayonidagi vaqt yo'qotishlarga sabab bo'lmoqda.

Logistika sifat indikatorlari bo'yicha tahlil ham umumiy holatni aks ettiradi. Yuk yetkazib berish muddati me'yoriy 2 kun o'rniga 5.5 kunni tashkil etib, bu logistika tizimidagi operatsiyalarning kechikishlar va nomuvozanatliklar bilan bog'liqligini anglatadi. «Real-time» monitoring, yuk harakatini kuzatish, logistika shaffofligi kabi zamonaviy xizmatlar yo'qligi mijoz uchun xizmatdan foydalanish jarayonini qiyinlashtiradi. Yuk yo'qotish darajasi ham me'yoriy ko'rsatkichdan ikki barobar yuqori ekanligi logistika tizimidagi ishonchsizlikni tasdiqlaydi.

Mijoz markazlilik darajasi bo'yicha indikatorlar (mijoz qoniqish indeksi va mijoz saqlanish darajasi) ham raqobatdagi o'rtadan past holatni ko'rsatadi. Yaxlit logistika yechimlarining mavjud emasligi, bojxona, saqlash va ortish xizmatlarining integratsiyalanmaganligi transport xizmatlarini kompleks yechim sifatida ko'rsatish imkonini cheklaydi.

Nihoyat, xalqaro standart va integratsiya indikatorlariga kelganda, TIR va COTIF kabi standartlarga formal muvofiqlik mavjud bo'lsa-da, ISO 9001, ISO 28000 kabi zamonaviy logistika standartlari hali joriy etilmagan.



«Multilateral transport agreements» bo'yicha qiymat 0.6 indeksi bilan baholaniб, bu mamlakatdagi mavjud xalqaro kelishuvlardan samarali foydalanish darajasining pastligini ko'rsatadi. O'zbekiston ECO, CAREC, SPECA, TRACECA kabi platformalarda a'zo davlat sifatida ishtirok etadi, ammo bu bitimlarning amaliy samarasi infratuzilma va huquqiy tizimga integratsiyalash darajasi pastligi sababli to'liq namoyon bo'lmayapti.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umumiy xulosa sifatida, tahlil qilingan indikatorlar bo'yicha O'zbekistonning ko'rsatkichlari aksar hollarda me'yoriy qiymatlarga nisbatan 1.2–2.0 barobar past ekanligi temir yo'l transporti xizmatlarining xalqaro raqobat muhitiga to'liq tayyor emasligini yaqqol tasdiqlaydi. Mazkur holat tasodifiy yoki vaqtinchalik omillar bilan emas, balki tizimli xarakter kasb etgan strukturaviy muammolar bilan bog'liqdir.

Birinchi navbatda, tarif va narx siyosatining bozor talablariga moslashmasligi raqobatdosh muhitda faol ishtirok etish imkonini cheklaydi. Davlat tomonidan qat'iy tartibga solinadigan tariflar va chegirma mexanizmlarining yo'qligi xizmatlarni individuallashtirish hamda mijozlar ehtiyojlarini to'liq qondirish imkonini bermaydi. Ikkinchidan, xizmat turlari diversifikatsiyasining pastligi — konteyner tashish ulushining atigi 18 foizni tashkil etishi, ekspress va «eshikdan eshikka» xizmatlarning amaliyotda qo'llanilmasligi — tarmoqning raqobat qobiliyatini sezilarli darajada zaiflashtiradi.

Texnik va infratuzilmaviy jihatdan ham jiddiy tafovutlar mavjud: modernizatsiya darajasining me'yoriy ko'rsatkichdan 15–35 foiz pastligi, ortish-tushirish jarayonidagi kechikishlar va raqamlashtirish sur'atlarining sekinligi operatsion samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Logistika sifati nuqtai nazaridan esa yuk yetkazib berish muddatining me'yordan 2.5 barobar uzunligi, real-time monitoring tizimining yo'qligi va yuk yo'qotish darajasining yuqoriligi mijozlar ishonchini pasaytiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/3107036>
2. Ballou, R.H. (2004). Business Logistics / Supply Chain Management: Planning, Organizing and Controlling the Supply Chain. 5th Edition. Pearson / Prentice Hall Inc., New Jersey. — 789 p.
3. Goldsby, T.J., Martichenko, R. (2005). Lean Six Sigma Logistics: Strategic Development to Operational Success. J. Ross Publishing, Inc., Florida. — 289 p.
4. Yanliang, W., et al. (2023). Efficiency of railway transport: A comparative analysis for 16 countries. Transport Policy, Vol. 138, pp. 98–112. [https://doi.org/10.1016/S0967-070X\(23\)00181-6](https://doi.org/10.1016/S0967-070X(23)00181-6)
5. Posokhov, I.M. (2018). Modern Approaches to Ensuring the Competitiveness of Railway Transport in the Context of the European Integration. Bulletin of the NTU «KhPI». Series: Technical Progress and Production Efficiency, No. 60, pp. 115–119.
6. Porter, M.E. (1985). Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. Free Press, New York. — 557 p.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100